



## IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILARNI IJTIMOIIY HAYOTGA TAYYORLASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li  
Namangan davlat pedagogika instituti  
Pedagogika va psixologiya kafedresi

**Kalit so'zlar:** imkoniyati cheklangan, surdopedagogika, ehsitish nuqsoni, analizator, nutq, sezgi, idrok.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash masalalari, ulardagi nuqsonlarni bartaraf etish yo'llari, ijtimoiy hayotga ijobiy munosabatni shakllantirish haqida so'z yuritilgan.

### Подготовка учащихся с ограниченными возможностями к общественной жизни как педагогическая проблема

**Ключевые слова:** ограниченные возможности, сурдопедагогика, нарушение слуха, анализатор, речь, интуиция, восприятие

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы подготовки учащихся с ограниченными возможностями к общественной жизни, пути преодоления в них недостатков, формирования позитивного отношения к общественной жизни.

### Preparing students with disabilities for social life as a pedagogical problem

**Keywords:** capacity limited, surdopedagogy, exposure defect, analyzer, speech, intuition, perception.

**Annotation.** This article talks about the issues of preparing students with disabilities for social life, ways to eliminate defects in them, the formation of a positive attitude to social life



Imkoniyati cheklanganlarning ijtimoiy hayoti inson ongida chuqur o'rnashgan motivlar tizimi, bularga o'z xatti-harakatida amal qilishni majburiy deb hisoblaydi. E'tiqodning shakllanish jarayoni uzoq va murakkab. Bular ma'naviy madaniyat va inson ijtimoiy amaliyotni o'zlashtirishi davomida yuzaga keladi, u olgan bilimlar hayotiy tajribada tasdiqlansa yoki rad etilsa paydo bo'ladi. Ijtimoiy hayotning shakllanishi shaxsning oilada, maktabda, mehnat va ijtimoiy faoliyatda axloqiy tarbiyalanish jarayonining tomonlaridan biri.[2.6]

Inson va atrof muhit doimiy ravishda aloqada bo'lib, u ko'rish, eshitish, teri, ta'm, hid bilish, harakat analizatorlari orqali amalga oshiriladi.

Eshitish analizatori insonning barcha a'zolari ichida eng ahamiyatlilaridan sanalib, uning asosiy vazifasi nutqni idrok qilishdan iboratdir. To'laqonli eshitish nutq shakllanishining omili sanaladi. Nutq orqali esa insonning so'z-mantiqiy tafakkuri, umumiy va ruhiy rivojlanishi sodir bo'ladi. Moddiy dunyodagi narsa va hodisalar ongimizda aks etib, bular so'z shaklida ifodalanadi, til hodisalari vositasida namoyon bo'ladi. Inson o'zi ko'rgan va ta'sirlangan buyum va hodisalarni so'z yordamida nomlab, mazmuni haqidagi taassurotlarini obrazlar, fikrlar, tushunchalar, tasavvurlar ko'rinishida anglash, ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Har qanday buyum, hodisaning miyada aks etishi va ongda mustahkam o'rnashib qolishida nutq yetakchi vosita hisoblanadi. Shuningdek, u tafakkur quroli, muloqot jarayonida fikrni ifodalash, biror narsani bildirish, anglatish va ta'sir ko'rsatish quroli bo'lib ham xizmat qiladi. Fikrlash qobiliyati nutqiy rivojlanish zamirida paydo bo'lishi sababli u inson tafakkurining rivojlanish darajasini belgilab beradi[1.58].

Eshitish idrokining buzilishi oqibatida insonning nutqni egallay olmasligi, shu bois jamiyat a'zolaridan yakkalanib qolishi uning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishida qator muammolarni yuzaga keltiradi. Bular o'zaro bir-biriga tobe bo'lgan turli sabablarga bog'liq bo'lib, bu xususida L.S.Vigotskiy: «Ijtimoiy tarbiya nutqning rivojlanmaganligiga, nutqning rivojlanmasligi jamoa (kollektiv)dan



yakkalanib qolishga, jamoa (kollektiv) dan ajralib qolish esa, o'z navbatida, ijtimoiy tarbiya hamda nutqning rivojlanishini tormozlaydi»,- deydi[5.45].

Surdopedagogika tarixiga nazar tashlasak, turli davrlarda eshitishida muammosi bo'lgan o'smirlarni tadqiqot ob'ekti sifatida o'rgangan pedagog va olimlardan J.Kardano, V.I.Fleri, J.Itar, Ya.T.Speshnevlar ular orasida u yoki bu holda murojaat etilgan nutqni tushuna oladigan, qisman lug'at boyligiga ega bo'lgan, ba'zan, hatto, sodda jumlar tuza oladigan o'smirlar borligini, agar nutq ularga qarata balandlatilgan holda aytilsa, bunday o'smirlar ta'lim-tarbiyasining barcha muammolari hal etilishi mumkinligini ta'kidlab, eshitishi qisman buzilgan o'smirlarga, ular nutqining o'ziga xos rivojlanishiga alohida e'tibor qaratganliklariga guvoh bo'lamiz[5.10]. V.I.Fleri bola shaxsining shakllanishi uchun atrofidagi yaqinlari va ayniqsa onasi alohida g'amxo'rlik, e'tibor ko'rsatishlari zarurligi hamda kar bola nutqining rivojlanishi uchun ilk yosh davri alohida o'rin tutishini ta'kidlagan holda: «Kar-soqov bola qancha kichik bo'lsa, uning o'zlashtirish layoqati shuncha yuqori bo'ladi»,-deb yozadi[1.30.]. Olim, shuningdek, dastlabki so'zlarni bola ko'rish asosida taqlidan o'zlashtirishi lozimligini alohida qayd etadi.

Eshitishida muammosi bo'lgan o'smirlarning nutqiy rivojlanish masalalari bir necha asrlar mobaynida ko'plab o'qituvchi va metodistlarning e'tiborini jalb qilganiga qaramay, bu muammoning yechimiga, ya'ni maxsus maktablardagi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish bo'yicha yondashuvlarning yangi yo'nalish olishiga L.S.Vigotskiyning maxsus ta'lim tizimi masalalarini yoritib bergan qator asarlari turtki berdi. Olim maxsus maktablardagi og'zaki nutqni rivojlantirishga mo'ljallangan usul bolaning sarmazmun hayoti, uning qiziqishlari bilan bog'liq bo'lmagan sharoitda olib borilishiga e'tibor qaratib, nutqni ijtimoiy hayotda ishtirok etmagan holda egallash, qirg'oq bo'yida turib suzishni o'rganish holatiga qiyoslab, ijtimoiy muhit hamda uning tuzilishi har qanday tarbiya tizimining pirovard hamda hal qiluvchi omili ekanligini alohida qayd etadi: «Bola hayotini



shunday tashkil etish lozimki, unga nutq zarur va qiziqarli bo'lsin. Ta'limni bola qiziqishlariga qarshi emas, ushbu qiziqishlar tomon yo'naltirish lozim. Umuminsoniy nutqqa nisbatan ehtiyojni yuzaga keltirish zarur, shundagina nutq paydo bo'ladi. Nutq muloqotga kirishish va fikrlash asosida, murakkab hayotiy sharoitlarga moslashish natijasida yuzaga keladi»[ 4.25].

L.S.Vigotskiy ushbu sharoitni yaratishda sog'lom (me'yordagi) bolaning nutqiy rivojlanish bosqichlariga tayangan holda ish ko'rish lozim ekanligi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: «Birinchi planga, eng avvalo, bolaning bola ekanligi va shundan so'nggina kar-soqov ekanligi holati qo'yiladi. Bu shuni anglatadiki, bola, eng avvalo, umumiy qiziqish, layoqat, shuningdek, me'yordagi bola yoshi qonuniyatlariga muvofiq holatda o'sishi, rivojlanishi va tarbiyalanishi hamda xuddi shu jarayonda nutqni egallab borishi lozim. O'smirlar o'zlarining muayyan sifat va ko'nikmalarini rivojlantirishga ehtiyoj sezishlari lozim. Ular o'zlarini boshqa ko'pchilik o'smirlar va kishilardan farqli ekanliklarini his qilmasliklari, ularga tenglasha olmasliklariga ishonch hosil qilmasliklari lozim» [3.57].

Yuqoridagilar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, eshitishida muammosi bo'lgan o'smirlarni tallafuzga o'rgatish kabi masalalar ijtimoiy tarbiya zaminidagina o'zining to'g'ri yechimini topadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Imkoniyati chyeklangan o'smirlar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish to'g'risida muvaqqat NIZOM. O`RXTV T.,19 syentyabr, 2005.
2. Alohida yordamga muhtoj o'smirlarni ma'naviy va estetik rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy - nazariy konferensiya materiallari. Toshkent- "Uzinkomsentr"-2002 yil.
3. Ayupova M. «Korreksion ishlar metodikasi. (ma'ruzalar matni)». T 2005 y



4. Islombekova Z.. «Talaffuzga o`rgatish va eshitish qobiliyatini rivojlantirish metodikasi» (Ma'ruzalar matni) T.: 2001 y.
5. Kar o'smirlar maktabida yakka tartibadagi mashg'ulotlarda eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzga o'rgatish DTS va dasturi. Toshkent 2005 yil.
6. methodical journal №1(9) 2024
7. Рафикова, Р. А. (2024). Теоретические аспекты социализации детей подросткового возраста с лёгкой степенью умственной отсталости. *Science and Education*, 5(3), 566-577.
8. Рахматуллаева, З. (2022). Профессиональное становление и педагогическое мастерство учителя. *Ученый XXI века*, (5-1 (86)), 37-38.
9. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. *Science and Education*, 3(12), 590-592.
10. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(2), 969-972.
11. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). O'SMIRLARGA HUQUQIY BILIM BERISHDA KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. *Экономика и социум*, (8 (87)), 42-45.
12. Rahmatullayeva, Z. O. (2021). Development of emotional intelligence in preschool children. *экономика и социум*, (5-1 (84)), 414-417.
13. Olimjonovna, R. Z. (2024). Emotsional intellekt bolajak mutaxassislarning muhim xususiyati sifatida. *samarali ta'lim va barqaror innovatsiyalar jurnali*, 2 (4), 185-192.
14. Roziqova, M., & Moxistarabonu, X. (2024). INKLYUZIV TALIMNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.



- DUNYODA TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA G'OYALARI , 41 (1), 92-94.
15. Roziqova, M. (2024). O'SMIRLARDA IJTIMOYIY TARMOQLAR TASIRIDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING OLDINI OLISH PSIXOLOGIK XIZMATNING DOLZARB VAZIFASI SIFATIDA. DUNYODA TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA G'OYALARI , 41 (1), 95-97.
16. qizi Rustamova, G. Z. X. (2024). Boshlangich sinf o'quvchilarining maktabga intellektual tayyorgarlik muammosi. Science and Education, 5(5), 331-335.
17. Ориббоева, Д. Д. (2022). О'QUVCHILARNI KASB TANLASHGA YO'NALTIRISHDA IJTIMOYIY KOMPETENTLIKNI TA'SIRI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.8.08.045> Oribboyeva Dilafro'z Dadamirzayevna NamDU Psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (8), 314-318.
18. Oribboyeva, D. D. (2019). STUDY OF SOCIAL COMPETENCE IN PSYCHOLOGICAL RESEARCH. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(4), 288-292.
19. Ikromaliyevna, K. N., Muhammedovich, B. M., & Dadamirzayevna, O. D. (2019). Eastern thinkers about the phenomena of self-awareness. Journal of Critical Reviews, 7(2), 2020.
20. Ориббоева, Д. Д. (2019). THE INFLUENCE OF SOCIAL COMPETENS ON PROFESSIONAL CHOICE. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(9), 256-261.
21. Oribboyeva, D. D., & Ikromova, D. (2024). Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasining o'ziga xosligi, aqli zaiflik turlari. Science and Education, 5(1), 287-291.



22. Oribboyeva, D. D. (2020). SOCIAL COMPETENCE AS AN INTEGRAL PART OF THE TEACHER'S PROFESSIONAL MATURITY. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(11), 347-353.
23. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). USING CASE STADE TECHNOLOGY IN LEGAL EDUCATION FOR TEENAGERS. *Экономика и социум*, (8), 42-45.
24. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. *Science and Education*, 4(5), 988-992.
25. қизи Камолова, А. О. (2024). ИСЛОМ ДИНИ ТАЪЛИМОТИДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ МАСАЛАЛАРИНИНГ ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТДАГИ АМАЛИ АХАМИЯТИ. *Results of National Scientific Research International Journal*, 3(1), 201-207.
26. qizi Kamolova, A. O. (2023). SINFDAN TASHQARI SPORT MASHG 'ULOTLARI ORQALI O 'QUVCHILARDA MILLIY G 'URUR, QADRYATLAR, UMUM INSONIY XIS TUYG 'ULARNI RIVOJLANTIRISH. *Results of National Scientific Research International Journal*, 2(8), 60-66.